

**O'ZBEKISTONDA 2022-2024 YILLARDA BYUDJET
MABLAG'LARINI SHAKLLANISHI HAMDA BARCHA SOHALARI
BO'YICHA RIVOJLANISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI**

Djalilov Kamoliddin Zairovich

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

Annotatsiya. *Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasi byudjet jarayonining mavjud holati tahlil qilinib, uning samaradorligini oshirish va takomillashtirish yo'llari ilmiy-amaliy jihatdan o'rganildi. Byudjet jarayonining har bir bosqichida moliyaviy intizomni mustahkamlash, byudjet tashkilotlari rahbarlarining mas'uliyatini oshirish, byudjet mablag'larini samarali taqsimlash va monitoring qilish tizimini yaxshilash bo'yicha takliflar ishlab chiqildi. Shuningdek, byudjet jarayonini soddalashtirish va uni raqamlashtirish orqali iqtisodiy islohotlarga xizmat qiladigan samarali moliyaviy boshqaruv mexanizmlarini yaratish yo'llari ko'rsatildi.*

Kalit so'zlar: *moliyaviy nazorat,transparensiya,inspeksiya,davlat byudjeti,monitoring, subsidiya, soliq, bojxona, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, moliyaviy xavfsizlik, innovatsiya,inflyasiyani.*

Abstract. *This article analyzes the issues of coordination of activities of financial control bodies. The main tasks of financial control bodies and the nature, importance and necessity of their activities are presented in the article. It also compares coordination issues, legal and academic issues, including the role of financial regulatory bodies in influencing and ensuring financial security. Article, financial aims to compare the activities of control bodies and important issues related to them. The article analyzes the most important concepts in the implementation of financial control bodies, the defined stages of their activity, the problems encountered in the process of coordination, as well as scientific and social*

problems in the coordination of the activities of financial control bodies.

Key words: *financial control, transparency, inspection, state budget, monitoring, subsidy, tax, customs, macroeconomic indicators, financial security, innovation, inflation.*

O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti va maxsus davlat jamg'armalari byudjetlari, shuningdek 2023 yilda tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining ijrosi va 2024 yilda rejalashtirilgan ijrosi, shu jumladan davlat byudjeti daromadlarini daromad turlari bo'yicha tasniflash, xarajatlar tahlili va iqtisodiyot tarmoqlari ijrosi islohotlar uchun 2022-2024 yillarda moliya-byudjet siyosati doirasida amalga oshirilgan byudjet taqchilligi va uni moliyalashtirish manbalari haqida ma'lumot berilgan.

2024 yilgi davlat byudjeti O'zbekiston Respublikasining 2023 yil 25 dekabrda O'RQ-886 Qonuniga muvofiq tasdiqlangan. Ushbu qonun Qonunchilik palatasi tomonidan 2023 yil 1 noyabrda va Senat tomonidan 2023 yil 20 dekabrda tasdiqlangan. Davlat byudjeti to'g'risidagi Qonunning maqsadi O'zbekiston Respublikasining 2024 yilgi jamlama byudjetini ishlab chiqish va amalga oshirish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Bu yerda takror aytaman, 2024 yilgi davlat byudjeti loyihasining mohiyati, birinchi navbatda, inson kapitalini rivojlantirishga sarflanadigan xarajatlarning ustuvorligini ta'minlashga qaratilgan. Shu munosabat bilan ijtimoiy himoyaning manzilliligini kuchaytirish, sog'liqni saqlash va ta'limni rivojlantirish va uning infratuzilmasini zamon ehtiyojlariga muvofiq o'qitish bilan bog'liq dasturlarni moliyalashtirish muhimdir.

2024-yilda davlat byudjetining kutilayotgan daromadlari 270 403,1 milliard so'mni tashkil etadi va bu ko'rsatkichlar 230 600 milliard so'mni 2025-yilda, 378 600 milliard so'mni 2026-yilda tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasining 2024 yilgi konsolidatsiyalangan byudjetining umumiy parametrlari va 2025-2026 yillarga mo'ljallangan byudjet maqsadlari quyidagilardan iborat: 2024 yilgi konsolidatsiyalangan byudjet daromadlari 375,030,5 mlrd.so'm, 452,563 mlrd.so'm 2025 yilda va 515,5202 milliard 2025

yilda.


O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjet daromadlari 2023 yil yakunlari bo'yicha 231.7 trln.so'mni tashkil etib, 2022 yilga nisbatan 29.9 trln so'mga yoki 14.8 foizga oshgan.

Hisobot davrida Davlat byudjeti daromadlari:

–Soliq qo'mitasi tomonidan 2023 yilda 165,9 trln so'm ushbu ko'rsatkich 2022 yilda 148.4 trln so'mni tashkil etib 2023 yilga nisbatan 0.8 foizga o'sgan. (jami tushumga nisbatan 71,6 %);

–Bojxona qo'mitasi tomonidan 58,4 trln so'm (jami tushumga nisbatan 25,2 %) shakllantirildi.

Boshqa daromadlar va soliqsiz daromadlar 7,4 trln. so'mga yetdi va 2023 yilga kelib QQSning salbiy farqi yopilsa, soliq to'lovchilar QQSning qaytarishda 21,6 trln.so'm (2,3 trln. so'mga nisbatan 2022) pul qaytarildi.



5-rasm. 2021-2023 yillarda Davlat byudjet daromadlari dinamikasi (trln.so'm)

Manba: Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2023 yil Davlat byudjeti ijrosi to'g'risidagi hisoboti.

Yirik soliq to'lovchilarning mintaqalararo soliq inspeksiyasi ma'lumotlariga ko'ra, 2023 yilda daromadlar 97,7 trln.so'mga yetdi, bu esa 9,4 trln. so'm yoki 10,6% ga 2022 yilga nisbatan o'sdi.

Mahalliy byudjetlarda 2023 yilda jami 5,0 trln so'm (o'tkazib beriladigan daromad bilan birga) qo'shimcha daromad shakllandi.Shundan 262.8 mlrd so'm Qashqadaryo viloyatiga to'g'ri kelad.

Ushbu jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, 2023 yilda davlat byudjeti daromatlari 231,720 milliard so'mni tashkil etdi, jumladan:

To'g'ridan-to'g'ri soliqlar 73,103 milliard so'mga yetdi, bu 8,7 milliard so'mga yoki 13,4 foizga o'sdi 2022 yilda. Bu umumiy daromadlarning 31,5 foizini tashkil qiladi.

Bilvosita soliqlar jami 83 325 trln so'm bo'lib 2022 yilga nisbatan 11.9 trln so'mga oshirilib bajarilgan. Jami tushumga nisbatan 36.0 foiz tashkil etgan

Resurs va mol-mulk soliqlar 28 079 trln so'm jami tushumga nisbatan 12.1 foiz

Boshqa daromadlar esa 47 211 trln so'm jami tushumga nisbatan 20.4 foizni tashkil etgan.

QQS stavkasining 15% dan 12% gacha pasayishiga qaramay, soliqning davlat byudjeti daromadlaridagi ulushi 2023 yildan 2022 yilgacha deyarli o'zgarmadi. Boshqa daromadlar va soliq bo'lmagan to'lovlarning ulushi davlat ulushiga ega korxonalar tomonidan to'lanadigan dividendlar hisobiga oshgan.

2023 yilda **foyda solig'i** bo'yicha tushumlar 40,8 trln so'mni tashkil etib, 2022 yilga nisbatan tushumlar 3,1 trln so'mga yoki 8,3 foizga ko'p bo'lgan. Tog'kon va metallurgiya sanoati korxonalarining asosiy ishlab chiqarish tovari hisoblangan oltinning 1 unsiyasi uchun jahon bozoridagi o'rtacha yillik narxning 1 941,8 AQSH dollarga oshishi foyda solig'i tushumlarini 2022 yilga nisbatan 6,2 foizga ko'payishiga olib keldi.

Tovar aylanmasi 1 mlrd so'mdan oshgan kichik biznes toifasiga kiruvchi tadbirkorlar uchun 1 yil davomida, kichik biznesdan o'rta biznes toifasiga o'tgan tadbirkorlar uchun 2 yil davomida foyda solig'i stavkasini 2 baravarga pasaytirish


imkoni berildi (30.08.2022 y. PQ-364-son). Natijada 2023 yilda tadbirkorlar ixtiyorida 58,5 mlrd so‘m mablag‘ qolgan. **[Mazkur imtiyoz Soliq kodeksining 337-moddasi 11-qismi. 2- va 3-xatboshilariga kiritilgan]** 2023 yil yakuniga kelib foyda solig‘i to‘lovchilar soni 183,5 mingtani tashkil etib, 2022 yilga nisbatan 19,0 mingtaga yoki 11,6 foizga oshgan

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i tushumlari 2023 yilda 29,9 trln so‘mni (5,6 trln so‘mga 2022 yilga nisbatan), shu jumladan, qat’iy belgilangan miqdorda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha tushumlar 2023 yilda 398,9 mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lib, 5,6 mlrd so‘mga 2022 yilga nisbatan ko‘paydi.

2023 yilda **aylanmadan olinadigan soliq** bo‘yicha tushumlar 2,4 trln so‘mga yetdi va 105,4 mlrd so‘mga yoki 2022 yilga nisbatan 4,2 foizga kamaygan.

2023 yilda **bilvosita soliq** tushumlari 83,3 trln.so'mga yetdi, bu 11,9 trln. so'mga yoki 16,7% ga o'sdi, 2022 yilga nisbatan. 2023 yilda soliq organlari 34000 milliard so'm (2022 yilga nisbatan 1200 milliard so'mga ko'p) va bojxona organlaridan 45 500 milliard so'm (2022 yilga nisbatan 6 800 milliard so'mga ko'p) undirdilar. Bundan tashqari, QQS yig'imi 21,600 milliard so'mni tashkil etadi. soliq to'lovchilarga to'lanadi mablag'lar to'langan.

2023 yilda QQS tushumlari 57,9 trln.so'mni yoki 5,7 trln. so'mni (+10,9%) 2022 yilga nisbatan ko'proq tashkil etdi. Soliq va bojxona imtiyozlarini bekor qilish va QQS undirish ma'muriyatini takomillashtirish orqali adolatli raqobat muhitini yaratish bo'yicha ko'rilyotgan chora-tadbirlar QQS samaradorligini oshirdi.



6-rasm. 2022-2023 yillarda qo‘shilgan qiymat solig‘i dinamikasi (trln.so‘m)

Manba: Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2023 yilgi Davlat byudjet ijrosi to'g'risidagi hisoboti

2023 yil davomida **aksiz solig'i** tushumlari 15,8 trln so'mni tashkil etdi, 2022 yilgi tushumlarga nisbatan 2,4 trln so'mga yoki 17,7 foizga oshdi.

2023 yilda soliq organlari tomonidan yig'ilgan aksiz solig'i tushumlari 15,1 trln so'mni tashkil etib, 2022 yilga nisbatan 2,1 trln so'mga ko'p. Bojxona organlari ma'murchiligida aksiz solig'i tushumlari 701,4 mlrd so'mni tashkil etdi hamda 2022 yilning shu davriga nisbatan 323,6 mlrd so'mga oshgan.

Aksiz solig'i tushumlari 2023 yilda quyidagicha ko'rinishda bo'ldi:

– alkogol mahsulotlari (pivo mahsulotlari bilan birga) – 2,2 trln so'm (2022 yil – 1,8 trln so'm);

– tamaki mahsulotlari – 2,3 trln so'm (2022 yil – 2,0 trln so'm);

– neft mahsulotlari – 282,6 mlrd so'm (2022 yil – 576,6 mlrd so'm);

– tabiiy gaz – 5,5 trln so'm (2022 yil – 4,2 trln so'm);

– mobil aloqa xizmatlari – 974,9 mlrd so'm (2022 yil – 868,0 mlrd so'm);

– benzin, dizel yoqilg'isi va gazni oxirgi iste'molchiga realizatsiya qilishdagi aksiz solig'i – 3,6 trln so'm (2022 yil – 3,4 trln so'm).

2023 yilda **bojxona boji** tushumi 9,6 trln so'mni tashkil etdi yoki 2022 yil bilan solishtirganda 3,9 trln so'mga yoki 67,2 foizga oshdi.

Bojxona tushumlarining o'sishi asosan import hajmining oshishi, ayrim bojxona imtiyozlarining amal qilish muddati tugashi, bojxona protseduralarining soddalashtirilishi, bojxona rasmiylashtiruv jarayonining tezlashishi va bojxona ma'muriyatining yangi usullarini joriy etish bo'yicha ko'rilgan choralar bilan bog'liq.

2023 yilda resurs solig'i va er solig'i bo'yicha jami tushumlar 28,1 trillion so'mni yoki 4,2 trillion so'mni yoki 17,4 foizga 2022 yilga nisbatan ko'proq bo'ladi.

2023 yilda yer solig'i va mol-mulk solig'idan tushgan daromad 12 trillion so'mga yetdi. Shundan mol mulk solig'i-5,1 trln. so'm, yer solig'i-6,9 trln. so'm. Yuridik shaxslarning mol-mulk solig'idan tushgan daromad 2023 yilda 3 trln. so'mni, 2022 yil yakunlariga nisbatan 568,8 mlrd.so'mni yoki 118,7 foizni tashkil

yetdi.

Yuridik shaxslarning mol-mulk solig'idan tushgan daromad 4 trln. so'mni 2023 yil yakunlariga ko'ra tashkil etdi, bu 296,1 milliard so'mga ko'p yoki 2022 yilga nisbatan 117,4 foizga ko'pdir.

2023 yil yakunlariga ko'ra suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlardan tushadigan daromad 791,4 milliard so'mga yetadi.

Qolgan daromadlar, xususan, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

– **davlat aktivlarini xususiylashtirishdan mahalliy byudjetlarga**

– **tushumlar** 584,7 mlrd so'm (2022 yilda 639,3 mlrd so'm);

– **davlat boji** –2,9 trln so'm (2022 yilda 2,7 trln so'm);

– **jarimalar** – 2,1 trln so'm (2022 yilda 1,5 trln so'm);

– **yig'imlar** – 1,9 trln so'm (2022 yilda 1,6 trln so'm).

Davlat byudjet xarajatlar to'g'risida.

O'zbekiston Respublikasining 2024 yilgi Davlat byudjeti to'g'risidagi qonunga muvofiq, byudjet xarajatlarining jamlanma prognozi 427,6 trln. so'mni tashkil etadi. 2024 yilning birinchi yarim yilligidagi hisobotlarga ko'ra, haqiqiy xarajatlar 220,1 trln. so'mga yetdi. Shundan ijtimoiy xarajatlarga I chorakda 33.9 trln so'm II chorakda 74.1 trln so'm bo'lib jami 107.9 trln so'mni, Iqtisodiy xarajatlarga I chorakda 13.5 trln so'm II chorakda 21.6 trln so'm bo'lib jami 35.1 trln so'mni boshqa xarajat uchun 39.7 trln so'mni tashkil etgan.

O'tgan yilda ham mamlakatimiz aholisining daromadlari va turmush darajasini oshirib borish siyosati davom ettirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ish haqi, pensiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to'g'risida"gi PF-45 va PF-196-sonli Farmonlariga asosan byudjet tashkiloti xodimlarining ish haqi miqdorilari hamda pensiya va nafaqalar ikki marta 7 foizdan oshirildi.

2023 yilda davlat byudjeti xarajatlari (shu jumladan maxsus davlat fondlariga o'tkazmalar) 281,1 trln. so'mni yoki YaIMning 26,4 foizini yoki 18,8 % 2022 yilda tashkil etdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- ❖ U.Mehmonov, Z.X.Karimova, A.S.Tursunov Byudjet tizimi Toshkent 2017
- ❖ G'aybullaev O., O'roqov U. O'zbekiston Respublikasida byudjet tizimi va jarayoni. O'quv qo'llanma. – Toshkent 2016 y
- ❖ Nurmuxamedova B.I. Davlat byudjeti. Darslik. – T. Iqtisod-Moliya 2018 y.
- ❖ J.R.Zaynalov, B.Sh.Xusanov S.S.Aliyeva, Sh.M.Latipova Davlat byudjeti o'quv qo'llanma T."Iqtisod-Moliya" 2021y
- ❖ A.Ismoilov Natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirish. Toshkent-2019 y.
- ❖ M.Ostonaqulov Byudjet hisobi darslik. Toshkent "Talqin"-2008 y.
- ❖ S.U. Mehmonov, D.Y. Ubaydullaev Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi darslik Toshkent 2013 y
- ❖ T.Malikov O.Olimjonov Moliya darslik T. Iqtisod-moliya 2019 y.
- ❖ B.I. Nurmuxammedova, Sh.K. Xamdamov Davlat moliyasi darslik T. Iqtisod-moliya 2020 y